

The Linguodidactic Importance of the Insight Method

Yayrakhon UMAROVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025
Received in revised form
15 February 2025
Accepted 15 March 2025
Available online
25 April 2025

Keywords:

insight,
metaphor,
allusion,
talmeh,
repression,
hypothesis.

ABSTRACT

The article analyzes the linguodidactic significance of the insight method in language teaching. The insight method, based on students' independent comprehension and discovery of knowledge, plays a key role in enhancing the cognitive and motivational effectiveness of language education. The paper examines the possibilities of applying this approach at various stages of learning, including the development of lexical, grammatical, and communicative competencies. Special attention is given to the use of the insight method in the context of teaching the Uzbek language. The article analyzes strategies aimed at developing creative thinking and problem-solving skills, as well as fostering a deep understanding of linguistic phenomena. The research results demonstrate that applying the insight method contributes to deeper language acquisition and stimulates active student participation in the educational process. However, the effectiveness of the method largely depends on the teacher's professional skills as a facilitator and the quality of instructional design. In conclusion, the article offers practical recommendations for integrating the insight method into modern linguodidactic practices and opens new perspectives for specialists and researchers in the field of language teaching methodology.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2-pp122-127>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Insayt metodining lingvodidaktik ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

insayt,
metafora,
allyuziya,
talmeh,
qatag'on,

Ushbu maqola insayt metodining lingvodidaktikada, xususan, til o'qitish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi. a'Maqolada ushbu metodning til o'qitishning turli bosqichlarida qo'llanilishi, jumladan, leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ta'siri o'rganiladi.

¹ Associate Professor, Andijan State Pedagogical Institute. E-mail: umarovayayragon@gmail.com

gipoteza

Shu bilan birga, metodning muvaffaqiyati o'qituvchining fasilitatorlik mahoratiga va dars dizayniga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari til o'qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun yangi istiqbollar ta'kidlanib, insayt metodini zamonaviy lingvodidaktik amaliyotlarda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Лингводидактическое значение метода инсайт

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

инсайт,
метафора,
аллюзия,
тальме,
вытеснение,
гипотеза.

Статья посвящена анализу лингводидактической значимости метода инсайта в процессе обучения языкам. Метод инсайта, основанный на самостоятельном осмыслении и открытии знаний учащимися, играет ключевую роль в повышении когнитивной и мотивационной эффективности языкового образования. В работе рассматриваются возможности применения данного подхода на различных этапах обучения, включая развитие лексической, грамматической и коммуникативной компетенций. Особое внимание уделяется использованию метода инсайта в контексте преподавания узбекского языка. Анализируются стратегии, направленные на развитие творческого мышления и навыков решения проблем, а также на формирование глубинного понимания языковых явлений. Результаты исследования показывают, что применение метода инсайта способствует более глубокому усвоению языка и стимулирует активное участие обучающихся в образовательном процессе. При этом эффективность метода во многом зависит от профессионального мастерства преподавателя как фасилитатора и от качества учебного дизайна. В заключение статья предлагает практические рекомендации по интеграции метода инсайта в современные лингводидактические практики и открывает новые перспективы для специалистов и исследователей в области методики преподавания языков.

Insayt atamasi (inglizcha “insight” – “tushunish”, “anglash”) kognitiv tilshunoslikka oid tushuncha bo'lib, kutilmaganda fikrning o'zgarib, ma'lum bir xulosaga kelish, ya'ni qo'yilgan masalaning asl mohiyatini tushunib yetish, idrok etish holatini anglatadi. Bu shunchaki ma'lumotni o'zlashtirish emas, balki yangi bilimlarni mavjud tajriba bilan uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni anglash jarayonidir. “Insayt” metodi muammoli ta'limning bir shakli sifatida, talabalarga tayyor yechimlarni taklif qilishdan ko'ra, ularni muammoning qiyinlik sababini, uni yechishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashni talab etadi.

“Insayt – bu qandaydir struktura, sxema, tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini kashf qilish va o'z tajribasini tuzilishiga ko'ra murakkab, yangi, notanish bilimlar asosida birlashtirish usulidir”.

Tadqiqotchi Stellan Olsson ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'qitish usullarini ikki toifaga ajratadi: bir xil, standart usullarni qo'llashga asoslangan monotonik usul va yangi, nostandart sharoitlarni yaratishga qaratilgan monotonik bo'lmagan usul. Bizningcha, monotonik bo'lmagan yo'nalishni politonik, ya'ni ko'p usulli deb nomlash mumkin. "Insayt" metodi aynan monotonik bo'lmagan o'rganish usuli hisoblanadi, chunki u an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, talabalarni yangicha fikrlashga, muammolarga kreativ yondashishga undaydi.

O'qitish jarayoniga kognitiv yondashuvning kirib kelishi ortidan XX asr oxirida ilg'or pedagog-olimlar tomonidan "insayt o'qitish" tushunchasi qo'llana boshladi. Bu usul talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, "Mental Leap" tadqiqot guruhining a'zosi, professor Barbara Oakli "insayt" o'qitish sohasida tadqiqotlar olib borib, bu usulni qo'llash orqali talabalarda murakkab hayotiy masalalarni hal qilish, qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, amerikalik psixolog Adam Grant hamda rossiyalik olimlar Aleksandr Toldov, Andrey Markevichlar ham insayt usulidan foydalanib o'qitishning samarali usul ekanligini e'tirof etadilar.

Barcha tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "insayt" o'rganish talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi; shuningdek, talabalarda keng dunyoqarash, o'z fikrlarini ifoda etishda jur'at, shaxsiy va kasbiy faoliyatida mustaqil harakatlanishni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, "insayt" metodi orqali o'rganish talabalarda o'z-o'zini bilish, hissiy intellektni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik yondashuvdir. Bu metod talabalarni passiv bilim oluvchidan faol, ijodkor izlanuvchiga aylantirishga qaratilgan ta'lim modelidir. Mavzuni chuqur o'rganish va hayotga bog'lab talqin qilish talabalarning shaxsiyati va muvaffaqiyatli hayot yo'llarini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, til hodisalarining mohiyatini chuqur bilishga qaratilgan kognitiv yondashuv shakli sifatida yaxshi samara beradi.

Masalan, **metafora** hodisasi tilda eng ko'p qo'llanadigan va juda keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Leksikologiya yoki Tilshunoslikka kirish kurslarida so'zning o'z va ko'chma ma'nolari xususida fikr yuritilar ekan, filolog-talabalar uchun "insayt" metodidan foydalanib, keng qamrovli, murakkablashtirilgan bilim hosil qilishlariga erishish maqsadga muvofiqdir.

Metafora – narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chish turi bo'lib, bir narsa yoki hodisani boshqasi orqali tasvirlashga asoslangan badiiy ifoda vositasidir. Unda bir narsaning belgilari boshqa narsaga ko'chiriladi va shu orqali yangi, obrazli ma'no yaratiladi. Oddiy qilib aytganda, metafora – bu yashirin o'xshatishdir.

Nutqimizda faol qo'llanadigan ko'plab maqollar, iboralar, idiomalar metaforaga asoslangan: *"aravani quruq olib qochmoq"*, *"boshida yong'oq chaqmoq"*, *"tarvuzi qo'ltig'idan tushdi"*, *"sichqonning ini ming tanga"*, *"gapida jon bor"*, *"pashshadan fil yasamoq"*, *"ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq"*, *"zuvalasi pishiq"*, *"yo'lga solmoq"*, *"ko'zining yog'ini yegan"*, *"ko'z qorachig'i"* kabilar. 3-4 nafar talabaning qo'lga metaforali iboralar yozilgan kartochkalardan berib, navbatma-navbat shu iboralarni qatnashtirib tez gap tuzish topshiriladi. Navbatma-navbat gap tuzilib, keyingi talabaga uzatiladi. Gap tuzishda

to'xtalib qolgan talaba safdan chiqadi. Eng topqir talaba g'olib deb e'lon qilinadi. Bunday usul talabalarining og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularni tez fikrlashga o'rgatadi.

Metafora kundalik nutqda ham keng qo'llaniladi va fikrlarni aniqroq va obrazliroq ifodalashga yordam beradi. Ayniqsa, badiiy adabiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, asarning ta'sirchanligini oshiradi, so'zning kuchini namoyon etadi va kitobxonning tasavvurini boyitadi. Masalan, Muhammad Yusufning Vatan, muhabbat, sog'inch mavzularidagi she'rlarida o'ziga xos metaforik tashbehlar ko'p qo'llangan.

*Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar –
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor.
Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring, mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,
Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor.*

(Muhammad Yusuf)

*Buni tasodifmi atayin, ayting,
Qitmir qismat o'yni deyinmi yo bir?
Ko'rib qo'y, Turkiston, ikki shoh bayting –
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.*

(Muhammad Yusuf)

Shu tariqa, ijtimoiy ruhdagi she'rlarda *“mehrobingdan chiqqan chayonlaring”*, *“ey onajonim”*, *“ikki shoh bayting”* metaforik ifodalari talabalarining tahlillari, fikrlari orqali ochib beriladi. Bunday tahlillar talabalarining ijtimoiy kompetentligini oshirib, yurt, elga bo'lgan muhabbatini, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytiradi.

Darsning keyingi qismida *“insayt”* metodi orqali Abduqayum Yo'ldoshevning *“Puankare”* hikoyasi misolida Puankare gipotezasining asarda qanday metaforik ma'noni anglatishi ochib beriladi. O'qituvchi tomonidan Abduqayum Yo'ldoshevning *“Puankare”* hikoyasining qisqacha mazmuni bayon qilinadi yoki audiomatn eshittiriladi. Asar qahramoni – nazariy matematika fanini hayotining mazmuni deb bilgan, kelgusida ulkan marralarni ko'zlagan iste'dodli yosh o'zbek yigitining g'ayrati va shijoati hayot girdobining maishiy o'pqnolari bilan kurashda yilma-yil, bosqichma-bosqich so'nib borganligi Puankare gipotezasining ramziy fonida ochib berilgan. Gipotezaning ilmiy jamoatchilik tomonidan *“Koinot formulasi”* deb nomlanishining o'ziyoq bu olamshumul masalani yechish orzusida bo'lgan asar qahramonining katta maqsadni ko'zlagani, jahon miqyosidagi muammo ustida bosh qotira oladigan qobiliyati va salohiyati bo'lganligiga ishora qilinadi.

O'qituvchi: *“Xo'sh, do'stlar, Puankare gipotezasi matematikada nimani anglatadi? Gipoteza nima degani o'zi?”*

Puankare gipotezasi bu matematikadagi juda mashhur va muhim masalalardan biri edi. U 1904-yilda fransuz matematigi Anri Puankare tomonidan ilgari surilgan bo'lib, 2002-yilda Grigoriy Perelman tomonidan isbotlangan. Puankare gipotezasi topologiyaga oid, ya'ni geometrik obyektlarning shaklini o'zgartirishga chidamli bo'lgan xususiyatlarini o'rganadi.

Hikoyada-chi? Ushbu gipotezaning hikoya kontekstidagi ramziy ma’nosi nima bo’lishi mumkin? Bu gipoteza qahramonning hayoti, orzulari yoki dunyoqarashi bilan qanday bog’liq bo’lishi mumkin?”

O’qituvchi: “Keling, har birimiz o’z taxminlarimizni aytamiz. Hech qanday to’g’ri yoki noto’g’ri javob yo’q. Eng muhimi – fikrlash va o’z fikrimizni asoslash.

Talabalar o’z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o’zaro bahsga kirishadilar.

O’qituvchi: “Shunday qilib, biz turli xil fikrlarni eshitdik. Hamma fikrlar ham qiziqarli va mulohazaga arziydi. Endi umumiy xulosaga kelishga harakat qilamiz. Sizningcha, Puankare gipotezasi hikoyada qanday metaforik ma’noni anglatadi?

O’qituvchi mashg’ulot davomida quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

- O’qituvchining vazifasi – tayyor javobni berish emas, balki talabalarni fikrlashga undash va ularga to’g’ri yo’nalishni ko’rsatish.

- Talabalarining har bir fikri e’tiborga olinishi va muhokama qilinishi kerak.

- Bahs do’stona va hurmat asosida o’tkazilishi lozim.

Kutilishi mumkin bo’lgan javoblar (variantlar):

- Puankare gipotezasi qahramonning hali yechilmagan, isbotlanmagan hayotiy savollarini ifodalaydi.

- Gipoteza qahramonning o’z hayotidagi murakkabliklarni tushunishga bo’lgan intilishini anglatadi.

- Kitobxon gipoteza ramzi orqali hikoya qahramonining shaxsiyatini taftish qilishga urinadi, uning hayotdagi asosiy maqsadidan uzoqlashib, turmush ikir-chikirlariga o’ralashib yashaganini anglab yetadi.

- Gipotezaning boshqalar tomonidan yechilishi qahramonning ideal dunyoga intilishi, mukammallikka erishishga bo’lgan umidi so’nganini ifodalaydi.

Ushbu usul talabalarni faol fikrlashga, o’z fikrlarini ifoda etishga va adabiyotni chuqurroq anglashga undaydi.

Abduqayum Yo’ldoshevning “Puankare” hikoyasi asosida o’tkazilgan dars yakunida Puankare gipotezasining metaforik ma’nosini muhokama qilish orqali metaforaning keng qamrovli hodisa ekanligi haqida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

“Bugun biz Abduqayum Yo’ldoshevning “Puankare” hikoyasi orqali metaforaning naqadar qudratli va ko’pqirrali badiiy vosita ekanligiga yana bir bor amin bo’ldik. Biz ko’rdikki, Puankare gipotezasi aslida matematik tushuncha bo’lsa-da, hikoya kontekstida qahramonning hayotiy muammolari, orzulari, maqsadlari va umidlarini ifodalovchi chuqur ramzga aylantirilgan.

Metafora faqatgina so’z o’yini yoki badiiy bezak emas. U – haqiqatni anglash, dunyoni yangicha ko’rish va inson ruhiyatining nozik qirralarini ochib berish imkonini beruvchi vositadir. Metafora orqali muallif oddiy so’zlarga yangi ma’no yuklaydi, o’quvchini fikrlashga, tasavvur qilishga va his qilishga undaydi. Shunday ekan, metafora – bu adabiyotning, san’atning va hatto kundalik hayotimizning ajralmas qismidir. U bizga murakkab tushunchalarni soddalashtirishga, hissiyotlarni ifodalashga va dunyoni yanada go’zalroq qilishga yordam beradi. Biz bugun Puankare gipotezasining metaforik ma’nosini tahlil qilar ekanmiz, metaforaning naqadar keng qamrovli hodisa ekanligini va uning inson tafakkuri va ijodiyotida tutgan o’rni beqiyos ekanligini angladik.”

Xulosaning yanada ta’sirchan bo’lishi uchun:

- 1) Talabalarining dars davomidagi fikrlaridan iqtiboslar keltirish mumkin.

- 2) Metaforaning boshqa san’at turlaridagi namunalarini keltirish mumkin (masalan, musiqa, rassomlik).

3) Talabalarga metafora haqida o'z fikrlarini yozma ravishda ifoda etish taklif qilinishi mumkin.

Shu tariqa, kognitiv yondashuv asosidagi "insayt" metodi lingvodidaktik materialni chuqurroq o'rganish bilan birga talabalarning ijtimoiy kompetentligini oshirish, hayotiy masalalarga munosabat bildirish olishiga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu metod filologiya ta'limida talabalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni mustaqil va erkin fikrlovchi shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax: Sangzor, 2006.
2. Babushkin A. P. Tipi konseptov v leksiko-frazeologicheskoy semantike yazika. Voronej, 1996.
3. Shamov A.N. Kognitivniy podxod k obucheniyu leksike: modelirovanie i realizatsiya (bazoviy kurs nemeskogo yazika): Avtoref.diss.d-ra ped.nauk. Tambov, 2005.
4. Yayraxon To'xtanazarovna Umarova (2022). Samarali hamkorlik – kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kafolati sifatida. Academic research in educational sciences, 3 (3), 410-416.
5. To'xtanazarovna, Umarova Y. "The Current Status Analysis of Language Competence of Pupils in Secondary Schools". JournalNX, vol. 7, no. 06, 2021, pp.
6. Umarova Y. O'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususida (morfologik birlik va shakllar tahliliga o'rgatish asosida). Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Researches. 2021. 2(54). 24-33.
7. Umarova Y., Ne'matova D. Umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar til kompetentligining joriy holati tahlili. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Pedagogical Research. 2020. 6(50). 47-57.
8. <https://skillbox.ru/media/education/kak-prihodit-insayt-chto-emu-pomogaet>
9. <https://dzen.ru/a/ZbJDMlwlii0U7-8R>